

UO'K: 811.523.133'373:821

**XORAZM VILOYATIDAGI O'ZBEK SHEVALARIDA IJOBİY ISTAK
IFODALOVCHI FRAZELOGIZMLAR SEMANTIK VA LINGVOMADANIY
XUSUSIYATLARI HAQIDA****Jumaboyeva Aziza Baxtiyor qizi,***Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti doktoranti*aziza.baxtiyorovna@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyatidagi o'zbek shevalarida duo, tilak va marosim olqishlari kabi ijobiy istak birliklari tarkibida faol qo'llanuvchi frazeologizmlarning o'ziga xos semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida bevosita hududdan yozib olingan dialektologik dala yozuvlari hamda ilmiy manbalar asosida shevaga oid frazeologik birliklarning leksik-semantik tabiati, shuningdek, ulardagi ma'no ko'chishlari chuqur ochib berilgan. Frazeologizmlar zamirida yashiringan qadimiy e'tiqodlar, islomiy qadriyatlar, voha aholisi ongidagi olamning lisoniy manzarasi va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim etnolingvistik kodlar lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xorazm shevalari, ijobiy istak birliklari, frazeologizm, semantik xususiyat, lingvomadaniyat, etnolingvistika, dialektologiya, olqish va duolar, milliy kod, ma'no ko'chishi.

Аннотация. В данной статье исследуются специфические семантические и лингвокультурные особенности фразеологизмов, активно используемых в составе единиц положительных пожеланий, таких как молитвы, благие пожелания и обрядовые благословения в узбекских говорах Хорезмской области. В процессе исследования на основе научных источников и диалектологических полевых записей, собранных непосредственно в регионе, глубоко раскрыты лексико-семантическая природа диалектных фразеологических единиц, а также происходящие в них переносы значений. С лингвокультурной точки зрения проанализированы скрытые в основе данных фразеологизмов древние верования, исламские ценности и важные этнолингвистические коды, отражающие языковую картину мира и мировоззрение в сознании жителей оазиса.

Ключевые слова: Хорезмские говоры, единицы положительных пожеланий, фразеологизм, семантическая особенность, лингвокультура, этнолингвистика, диалектология, благословения и молитвы, национальный код, перенос значения.

Abstract. This article investigates the specific semantic and linguocultural characteristics of phraseologisms actively used within the units of positive wishes, such as prayers, good wishes, and ceremonial blessings in the Uzbek dialects of the Khorezm region. Drawing upon scientific sources and dialectological field records gathered directly from the region, the study provides an in-depth analysis of the lexical-semantic nature of these dialectal phraseological units, including their semantic shifts. The ancient beliefs and Islamic values hidden at the core of these phraseologisms, along with the important ethnolinguistic codes reflecting the linguistic picture of the world and the worldview of the oasis inhabitants, have been analyzed from a linguocultural perspective.

Keywords: Khorezm dialects, positive wish units, phraseologism, semantic characteristic, linguoculture, ethnolinguistics, dialectology, blessings and prayers, national code, semantic shift.

Kirish. Jahon tilshunosligida xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyati, turmush tarzi, milliy urf-odatlari hamda qadriyatlarini o'zida jamlovchi leksikani keng o'rganish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Til va madaniyatning uzviy bog'liqligi xalqning o'ziga xos mentalitetini namoyon etadi. O'zbek xalq shevalari, xususan, Xorazm vohasi shevalarida ijobiy istak, olqish va duolarning lisoniy o'rni beqiyos bo'lib, ular xalqning etnik xotirasi, qadimiy e'tiqodlari va dunyoqarashini o'zida jamlagan qimmatli

lingvomadaniy kodlardir. Tilshunosligimizda ijobiy istak birliklari ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa-da, Xorazm shevalaridagi ijobiy istak ifodalovchi frazeologizmlarning leksik-semantik va lingvomadaniy tabiati maxsus tadqiq etilmagan.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, komponent tahlil hamda til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beruvchi maxsus lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ishning manbaviy asosini bevosita Xorazm viloyatidan yozib olingan dialektologik dala yozuvlari, qolaversa, Y. Bobojonov, M. Bazarova, Sh. M. Alimova kabi olimlarning ilmiy ishlari hamda yozma yodgorliklardan olingan materiallar tashkil etadi. Bu manbalar iboralarning semantikxususiyatlarini, ular zamirida yashiringan madaniy kodlarni dalillashga xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy hamda komponent tahlil metodlaridan foydalanilib, Xorazm shevalaridagi ijobiy istak ifodalovchi frazeologizmlarning leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari o'rganildi. Shuningdek, lingvomadaniy yondashuv asosida iboralar zamiridagi etnolingvistik kodlar, qadimiy e'tiqodlar va milliy qadriyatlar tahlil qilindi. Tadqiqot materiali sifatida dialektologik dala yozuvlari va ilmiy manbalar asosida to'plangan autentik til birliklari xizmat qildi.

Tahlillar va natijalar. Dialektologik dala yozuvlarini semantik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilib, quyida Xorazm shevalaridagi ijobiy istak bildiruvchi frazeologizmlar tahlilga tortildi. *Tapqaning yaxshi guna to'ylara buyurg'ay* [tapqanin yaxsi guna tojlara bujurvaj –topganing yaxshi kunga, to'ylarga buyursin]. Iborada Xorazm shevalariga xos bo'lgan qator fonetik xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Xususan, adabiy tildagi *kunga* so'zining shevada jarangli undosh bilan *guna* shaklida o'zgarishi va jo'nalish kelishigi qo'shimchasining qisqargan [-ä] shaklida qo'llanishi Xorazm o'g'uz va qipchoq lahjalariga xosdir. Fe'lning [-vaj] affiksi bilan ifodalanishi voha shevalarining qadimiy turkiy qatlamini namoyon etadi. Lingvomadaniy nuqtayi nazardan, o'zbek xalqining ongida barcha yig'ilgan mol-dunyo ezgu ishlarga, asosan to'y-tomoshalarga sarflanishi kerak degan qadriyat yotadi [1.13].

O't balosinnan suv balosinnan o'zing saqlag'aysan [ot bälasinnan suv bälasinnan üzin saqlayajsan – o't balosidan, suv balosidan o'zing asra]. Duo tarkibidagi chiqish kelishigining [-dan] o'rniga [-nan] shaklida assimilyatsiyaga uchrab qo'llanilishi aynan Xonqa va Bog'ot tumanlari nutqi uchun o'ta xarakterlidir. Bu ibora tarkibidagi o't (olov) va suv tushunchalari qadimiy zardushtiylikning muqaddas asari bo'lmish Avesto ta'limotidagi tabiatning ham poklovchi, ham halok qiluvchi kuchlari bilan bog'liq deyish mumkin [3.45].

Dard nalikin bilmayaysiz [därd nälikin bilmäjäjsiz – dard nimaligini bilmang (hech qachon kasal bo'lmang). Bemor odamni ko'rishga borganda aytiladigan bu taskin iborasi tarkibidagi [nälikin] birligi adabiy tildagi nimaligini so'zining qisqargan shevaviy

ko‘rinishidir. So‘z o‘rtasidagi undoshlarning tushib qolishi va *bilmäjäjsiz* so‘zidagi unlilarning cho‘zilishi ko‘rish mumkin [1.124].

Alinga aman-sog‘ alg‘oyson [älinjä aman-say alyajsan – farzandingni eson-omon qo‘lingga ol]. Homilador ayollarga qaratilgan ijobiy istak birligi tarkibidagi *älinjä* leksemasi qadimgi turkiy tildagi *al* (qo‘l) so‘zining arxaik ko‘rinishidir. *Sog‘* so‘zining metatezaga uchrab [*say*] shaklida talaffuz etilishi uning *Xorazm* hududiga xosligini isbotlaydi [5.115].

Uzingnan ko‘palib dinib-dinchib yuryaysan [uziññän kopälib dinib-dinčib jurjäjsän – o‘zingdan ko‘payib, tinib-tinchib (ovunib, xotirjam bo‘lib) yurgin]. Qizni kelinlik uyiga uzatayotganda aytiladigan bu olqishda chiqish kelishigi qo‘shimchasi *ng* tovushi ta‘sirida [-*ñän*] shakliga o‘tgan. Juft fe‘lning [*dinib-dinčib*] tarzida jarangli *d* tovushi bilan aytilishi *Xorazm* o‘g‘uz lahjasining asosiy qonuniyatlaridan biridir.

Kavaya imam bo‘g‘oyasan [Ka:vaja imam boyajsan – Ka‘baga imom bo‘lgin (martabang ulug‘ bo‘lsin). Ushbu istakda islomiy tushunchalar mahalliy talaffuzga to‘liq moslashgan. Adabiy tildagi *Ka‘ba* so‘zi *b* undoshining *v* ga o‘tishi natijasida [*Ka:va*] shaklini olgan. Islom dini qadriyatlarining mahalliy tilga singib, inson martabasining eng cho‘qqisini aynan dindorlik va muqaddas ziyoratgohlardagi o‘rin bilan o‘lchash madaniyati ushbu frazeologizm orqali yorqin namoyon bo‘lgan [2.15].

Qoshqaning bilan qosha qarrig‘aysan [qoşqaniñ bilän qoşa qarrijajsan – qo‘shganing bilan qo‘sha qari]. To‘y marosimlarida yosh oilalarga qaratilgan bu iborada [*bilän*] ko‘makchisining dialektal talaffuzi, qo‘sh undosh *rr* va kelasi zamon istak qo‘shimchasi *Xorazm* shevalariga xos bo‘lib, juftliklarning umrbod birga bo‘lishi, oila buzilmasligi va birgalikda keksayish kabi o‘zbekona mentalitetni ifodalaydi.

Bargan yeringda toshday qatgaysan [baryan jeriñdä taşdaj qatyajsan – borgan yeringda toshday qotgin (yangi oilangda mustahkam o‘rnashib qolgin). Iborada tarkibidagi [*taşdaj*] va [*qatyajsan*] so‘zlarida adabiy tildagi o unlisining ochiq *a* tovushiga o‘tishi (*tosh-tash, qot-qat*) qipchoq shevalarining yetakchi qonuniyatidir. Qizni kelinlik uyiga uzatayotganda aytiladigan bu qadimgi olqish turkiy xalqlarning ko‘pasrlik an‘analarini o‘zida ifodalaydi. [1.28].

Dushmanla ayaq astina [düşmānlä ajaq astina – dushmanlaring oyoq ostida xor bo‘lsin]. *Dushmanlar* so‘zining ko‘plik qo‘shimchasidagi *r* tovushi tushib qolib, [*düşmānlä*] shaklida aytilishi o‘g‘uz shevalariga xos holatdir. Yangi oyoq kiyimi kiygan insonga bildirilgan bu ijobiy istak yomon ko‘zdan saqlanish madaniyati mahsulidir. Shuningdek, dushmanni oyoq ostida tasavvur qilish animistik himoya instinkting lisoniy shaklidir [7.56].

Atang-anangni juzini jarug‘at [ata-ānañni juzini jaruy ät – ota-onangning yuzini yorug‘ qilgin, ya‘ni obro‘-e‘tibor keltirgin]. Yigitlarni uzoq safarga kuzatayotganda va boshqa shu kabi holatlarda qo‘llanuvchi bu iborada farzand yutug‘i to‘g‘ridan to‘g‘ri ota-

ona oriyati va obro'si madaniyati bilan bog'lanishi milliy etiketning yuqori namunasi hisoblanadi [6.84].

Uyingda bollorni vag'irdisi dinmasin [ujinjda ballarni vazirdisi dinmasin – uyingda bolalarning shovqini, qiyqirig'i tinmasin (farzandlarning ko'p bo'lsin)]. *Vazirdi* so'zi Xorazm vohasi etnoleksikasiga oid so'zdir. Yangi oilaga ko'p farzandlik tilash olqishi bolalar shovqinini eng katta baxt va uyingning fayzi sifatida qabul qilishga borib taqaladi.

Kisa-karaming doli pul bolsin [kisä-kärämiñ doli pul bolsin – cho'ntaklarning pulga to'lsin (boy-badavlat bo'lg'in). Bu tilak vo'ha hududidagi savdo-sotiq, tijorat madaniyati va moddiy mustaqillik muhim hayotiy mezonlardan biri ekanligini ifodalaydi [7.68]. Adabiy tildagi *kisayi karamiga barakat bo'lmoq* iborasi eng go'zal, chuqur ma'noli va badiiy bo'yoqdor bo'lib, fors-tojikcha *kisa* “cho'ntak”, “hamyon”, “pul yoki mayda narsalar solinadigan kichik xalta”, arabcha *karam* so'zi saxiylik, lutf, himmat, muruvvat va ochiqko'ngillik, *barakat / baraka* so'zi ham arab tilida “qut”, “ne'matning ziyoda bo'lishi”, “unum”, “ko'payish” ma'nolarini anglatadi. Iboradagi *kisayi karam* qismi forscha izofa bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilinganda “*saxiylik hamyoni*” degan ma'noni anglatadi. Xorazm shevalarida qo'llanadigan *kisä-kärämiñ doli pul bol bolsin* iborasining umumiy ma'nosi: “*Saxiylik va himmat bilan qilgan xarajatlaringizga, ulashgan ne'matingizga Xudo baraka bersin; hamyoningiz hech qachon bo'shamasin, sarflaganingiz o'rniga o'n chandon ziyoda bo'lib qaytsin*” deganidir. Bu olqish asosan biror kishi dasturxon yozib mehmon qilganda, hadya ulashganda yoki moddiy yordam ko'rsatganda, uning ochiqqo'lligi va himmatiga nisbatan minnatdorchilik bildirish maqsadida ishlatiladi. Bunday ijobiy tilak-istaklarni ifodalovchi xalq leksikasida insonning mavhum fazilati bo'lgan saxiylik tushunchasi moddiy buyum bo'lmish *kisa* orqali metaforik tarzda ifodalanfan.

Ataking doli bala bosin [ätäkñ doli bala bosin – etaging to'la bola bo'lsin (serfarzand bo'lg'in). [*Bosin*] fe'lidagi l undoshining tushishi jonli so'zlashuvdagi lisoniy iqtisod tamoyiliga to'la mos keladi. *Ätäkñ doli bala bosin* iborasi sof turkiy ildizlarga ega bo'lgan, qadimiy unumdorlik va serfarzandlik qadriyatlarini o'zida aks ettiruvchi o'ta ta'sirchan ijobiy tilak-istak iborasidir. Leksik-etimologik jihatdan qaraydigan bo'lsak, qadimgi turkiy tildagi kiyimning bari ma'nosini anglatuvchi «etak», miqdorning serobligini bildiruvchi «to'la» hamda «bola» leksemalarining buyruq-istak maylidagi fe'l bilan birikuvi orqali hosil bo'lgan ushbu olqishda nasl-nasab davomiyligi metaforik tarzda ifodalangan. Xalqimiz nutqida, xususan, Xorazm shevalari doirasida bu pragmatik birlik asosan yoshi ulug' kayvonilar tomonidan to'y va marosimlarda yosh kelinchaklarga qarata aytilib, ayolning ko'p farzandli, baxtli ona bo'lishini tilashdek ezgu niyatni o'zida namoyon etadi

Uzumdin meva bargay, gujumdin saya bargay [üzümdin mevä bärğäj, gücümdin saja bärğäj – uzumdayin ko'p meva bergin, gujumdayin katta soya bergin]. O'zbek adabiy tilidagi [-dan] kelishigining shevada [-din] shaklida kelishi uning tarixiy ildizi naqadar

chuqurligidan darakdir. Vohaning tabiatiga xos bo'lgan *gujum* va *uzum* kabi leksemalar ishtirok etgan metaforik ibora qadimiy qarashlarning lisoniy aksi hisoblanadi.

Baxti yatmagaj, dāvlāti qāytmägāj [*bāxti jatmayaj, dāvlāti qājtmäyäj* – baxti chekinmasin, davlati, ya'ni boyligi kamaymasin]. Adabiy tilda va Toshkent, Farg'ona shevalarida *baxting ochilsin* deyilsa, *Xorazm* shevasida qadimiy [-*yaj*] affiksi yordamida “baxtning yotib qolmasligi” so‘ralgan. Madaniy nuqtayi nazardan bu yerda xalq ongida baxt harakatda bo‘lishi kerak bo‘lgan tirik kuch hisoblangan [1.235].

Bashshi ashaq bo‘lg‘ay, dili yumshaq bo‘lg‘ay [*bašši āšaq bolyaj, dili jumšaq bolyaj* –kamtarin va shirinsuxan bo‘lsin]. Adabiy tilda *boshi egik*, Qashqadaryo shevalarida *tili shirin* kabi iboralar ishlatilsa, Shovot, Xiva tumanlarida “past”, “quyi” ma’nosini ifodalovchi *āšaq* so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan. Egalik qo‘shimchasi ta’sirida *baš* so‘zidagi *š* undoshi geminatsiyaga uchrab, so‘z *bašši* tarzida talaffuz qilinadi. Lingvomadaniy jihatdan bu ibora kelinlik odobi, xotin-qizlar nutqidagi ijtimoiy rollar va gender xususiyatlarini yoritadi [4.61].

Teyinnan shamal otib dursin [*tejinnän šamäl ötib dursin* – tagidan shamol o‘tib tursin (Uloving buzilmasin). Adabiy tildagi *tagidan* so‘zi g undoshining j ga aylanishi va [-*nän*] affiksi orqali [*tejinnän*] ko‘rinishini olgan. Samarqand, Buxoro shevalarida *balosiz haydang* deyilsa, *Xorazmda* mashina g‘ildiraklarining yerga tegar-tegmay, shamoldek uchib yurishiga va buzilmay, falokatga uchramay yurishiga ishora qiluvchi metonimiya qo‘llanadi.

Ayaq izlari yarashqay [*ajaq izlari jārāšqāj* – qadami qutlug‘ kelsin]. *Toshkent* va boshqa hududlarda arabcha *qadam* so‘zi ishtirokida *qadami qutlug‘ kelsin* deyilsa, xalqimizdagi “Mehmon otangdan ulug‘” e’tiqodi xonadonga fayz kirishini *oyoq izlarining yarashishi* deb yuksak estetik shaklda tasvirlaydi. *ajaq izlari jārāšqāj* *Xorazm* shevalarining ijobiy tilak-istak va olqishlar leksikasida muhim sotsiolingvistik ahamiyatga ega bo‘lgan, insonning yangi manzilga qadam ranjida qilishi bilan bog‘liq qadimiy ishonch-e’tiqodlarni aks ettiruvchi pragmatik birliklardir. Leksik-semantik va etimologik jihatdan bu tilaklardagi sof turkiy “oyoq izi”, “yarashmoq”, so‘zlari o‘zaro sinkretik tarzda birikib, xalqimizning yangi kelin tushirganda, xonadonga chaqaloq kelganda yoki aziz mehmon tashrif buyurganda ularning kelishi shu joyga fayz-baraka, tinchlik va o‘zgarishlar olib kelishiga bo‘lgan umidini go‘zal ko‘chma ma’noda ifodalaydi. Shu kabi yana bir ijobiy istak birligi bor. *Qadam yetdi, balo yetmasin* iborasi o‘zbek xalq og‘zaki ijodi va kundalik muloqotida, xususan, *Xorazm* shevalari leksikasida keng qo‘llanuvchi, o‘zida yovuzlikni qaytarish funksiyasini mujassam etgan chuqur ma’noli ijobiy tilak-olqishdir.

Giymak nasib atgay, dushmaning piyodo qalg‘ay [*gijmāk nāsib ätgäj, dušmāniñ pījädä qalyaj*]. Yangi kiyim kiyish nasib etsin, dushmaning xor bo‘lsin. Adabiy tilda *to‘ylarga kiygin* deyiladi. Lingvomadaniy tarafdin, turkiy xalqlarning madaniyatida otdagi

inson g'olib, piyoda qolish esa nochorlik belgisi sanalgan ijtimoiy qatlamlar tushunchasi o'z isbotini topgan.

Juz bilän juzläšib jurgäjsiz [juz bilän juzläšib jurgäjsiz – yuz yoshga kiring, yuz yosh bilan yuzlashing. Adabiy tilda yuz yoshga kiring deyiladi. Xorazm shevasida esa raqam, chehra, harakat o'rtasidagi ma'no o'yini juz, juzläšib, jurgäjsiz orqali berilgan. O'zbek madaniyatidagi uzoq umr ko'rish, keksalarga yuksak ehtirom ushbu ibora orqali ifodalangan.

Xulosa. Xorazm shevalaridagi ijobiy istak bildiruvchi frazeologizmlar dialekt leksikasining g'oyat boy, serqirra va emotsional bo'yoqdorlikka ega bo'lgan noyob qatlamini tashkil etadi. Ushbu lisoniy birliklar xalqning asrlar davomidagi etnik xotirasi, dunyoqarashi va turmush tarzini yorqin namoyon etuvchi muhim lingvomadaniy kodlar sanaladi. Semantik jihatdan bu iboralar tarkibida metaforik va metonimik ma'no ko'chishlari faol bo'lib, ular orqali so'zlovchining ezgu niyatlari juda ta'sirchan, jozibali va tasviriy usulda ifodalanadi. Lingvomadaniy nuqtayi nazardan, tahlilga tortilgan frazeologizmlar zamirida Xorazm vohasi aholisining qadimiy e'tiqodlari, islomiy qadriyatlari hamda o'ziga xos dunyoqarashi yashiringanligi tasdiqlandi.

Xorazm shevalarida ijobiy istak ifodalovchi frazeologizmlar o'zbek adabiy tili va boshqa vohalar shevalaridan o'zining qadimiy turkiy ildizlarini mustahkam saqlaganligi, qat'iy fonetik o'zgarishlaribilan tubdan farq qiladi. Iboralar tarkibida qadimgi turkiy tilga xos [-yaj] buyruq-istak mayli affikslarining saqlanib qolishi, shuningdek, *al* (qo'l) yoki *äšaq* (past) kabi arxaik leksemalarning kundalik muomalada jonli yashab kelayotganligi mazkur hudud shevalarining tarixiy-etimologik jihatdan ham barqaror va qadimiy ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimova Sh.M. Xorazm qipchoq shevalarining leksik-grammatik xususiyatlari. – Urganch: Khwarezm publication, 2024. – 132 b.
2. Bazarova M.M. O'zbek tilida ijobiy istak mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklarning lisoniy xususiyatlari: Filologiya fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 2007. – 24 b.
3. Bobojonov Y. Janubiy Xorazm etnografik leksikasi: Filologiya fanlari nomzodi ... diss. – Toshkent: Fan, 1997. – 187 b.
4. Imomov K., Mirzayev T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – 304 b.
5. Jumaboyeva A.B. Linguistic units expressing the meaning of positive wishes related to childbearing in the Uzbek dialects of Khorezm region. – Urganch: UrDU, 2024. – B. 115.
6. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1960. – 500 b.
7. Norbayeva Sh.X., Sadullayeva N., Atabayeva M. Xorazm shevalari lug'ati. 1-jild. – Urganch: Xorazm nashriyoti, 2024. – 160 b.
8. Xorazm viloyati dialektologik ekspeditsiyasi dala yozuvlari (2024-2025 yillar materiallari).